Shundan kelib chiqib, mamlakatimizda davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalarni amalga oshirish, xususan, sog'liqni saqlash sohasida samarali va bozor munosabatlariga mos moliyalashtirish mexanizmlarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, sog'liqni saqlash sohasidagi DXSh loyihalarini suveren xalqaro obligatsiyalar foiz stavkalari asosida ulushli moliyalashtirish amaliyoti joriy qilingan bo'lsa, xorijiy



sarmoyalarni jalb etishda 80 foizlik ishtirok talabining qo'llanilishi sohaning investitsiyaviy jozibadorligini yanada oshirmoqda.

Davlat va xususiy sektor o'rtasida manfaatli hamkorlikning (davlat-xususiy sheriklik) eng oddiy ko'rinishdagi mexanizmi quyidagicha ifodalaniladi (1-rasm):



1- rasm. Davlat va xususiy sektor o'rtasida manfaatli hamkorlikning (davlat-xususiy sheriklik) eng oddiy ko'rinishdagi mexanizmi¹.

Yuqoridagi mexanizmga ko'ra, davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyhasini amalga oshirishda, birinchi navbatda, davlat va xususiy sektorning infratuzilma tarmoqlari tashkil etish, mavjudlarini rivojlantirish va ijtimoiy ahamiyatli bo'lgan muhim xizmatlarni amalga oshirishda moliyaviy, texnologik hamda boshqaruv resurslarining o'zaro manfaatli birlashuvi yuzaga keladi. Bunday ko'rinishdagi ikki tomonlama o'zaro manfaatli munosabatlarni davlat va xususiy kompaniyalar kooperatsiyasi, deyish o'rinli. Ayni vaqtda, davlat-xususiy sheriklik haqida tuziladigan shartnomalarda tomonlar o'rtasida loyiha bo'yicha risklarning bo'linishi aniq ko'rsatiladi. Bu muhim shartdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

DXSh loyihalari orqali xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni qo'llab-quvvatlash, DXSh mexanizmi orqali investitsiya loyihalarini boshqarish tizimini takomillashtirish, ushbu loyihalarni davlatning xizmat ko'rsatish sohasiga ham tatbiq etish imkoniyatlarini o'z ilmiy tadqiqotlarida o'rgangan olimlardan V.G.Varnavskiyning[1] fikricha, "Davlat-xususiy sheriklik loyihalari davlat uchun strategik ahamiyatga yaqin, ammo undan keyingi darajadagi loyihalarga investitsiyalarni jalb etish uchun mexanizm hisoblanadi. Ushbu mexanizmga davlat asosiy ijtimoiy foyda evaziga va kelgusidagi yirik xarajatni oldini olish va uning bir qismini xususiy sektorga uning manfaatlari evaziga yuklashga qaratilgan samarali loyihaviy boshqaruv tizim hisoblanadi".

Richard Hemming[2] DXSh munosabatlari davlat uchun ham, xususiy sektor uchun ham jozibali ekanligi va bunda davlat infratuzilmani qarz olmasdan moliyalashtira olishi, xususiy sheriklikning boshqaruv imkoniyatlari loyihalarda xarajatlarning tejalishiga olib kelishini ta'kidlaydi.

Bu borada, turli boshqaruv mexanizmlari ham taklif etilgan. Jumladan, davlat va xususiy sheriklik amaliyotida moliyaviy munosabatlarni takomillashtirish borasida tadqiqotlar olib borgan N.Shavkatov tomonidan O'zbekistonda maxsus loyiha kompaniyasi (SPV) tuzish orqali davlat-xususiy sherikligi ishlash va boshqarish mexanizmi taklif etilgan (2-rasm):

1 Muallif ishlanmasi



2- rasm. O'zbekistonda maxsus loyiha kompaniyasi (SPV) tuzish orqali davlat-xususiy sherikligi ishlash va boshqarish mexanizmi [3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda yillar kesimida davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirilgan loyihalarning umumiy hajmi quyidagicha (1-jadval):

1-jadval. O'zbekistonda 2018-2022 yillarda davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirilgan loyihalarning umumiy tahlili².

Yillar	Loyihalar soni	DXSh hajmi, mlrd. so'm	YalMga nisbatan ulushi, %	Asosiy kapitalga in-vestitsiyalarga nisba-tan ulushi, %
2018	38	129,341	0,03	0,10
2019	49	149,652	0,03	0,08
2020	51	240,011	0,04	0,11
2021	157	3 293,71	0,45	1,37
2022	178	18 039,38	2,03	6,78
Jami	473	21 852,09	-	-

O'zbekistonda 2018-2022 yillarda davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirilgan loyihalarning umumiy tahlili shuni ko'rsatadiki,

2018 yilda 38 ta davlat-xususiy sheriklik asosida loyihalar amalga oshirilgan bo'lsa, 2021 yilda ularning soni 157 taga, 2022 yilda esa

178 taga etgan. Bu boradagi o'sish ko'rsatkichi, 2021 va 2022 yillarda

2018 yilga nisbatan 4 barobardan ortiqqa o'sgan. Albatta, koronavirus pandemiyasiga keyingi davrda davlat-xususiy sherik asosida loyihalarni moliyalashtirish hajmida ham o'sish ko'rsatkichlari ijobiy holatni qayd etganligini ko'rish mumkin. Jumladan, 2021 yilda barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan amalga oshirilgan loyihalar uchun 3 293,71 mlrd. so'm miqdoridagi moliyaviy resurslar jalb qilingan bo'lsa, ushbu loyihalarning umumiy qiymati mamlakat YalMga nisbatan 0,45 foizni, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmiga nisbatan esa 1,37 foizni tashkil etgan. Shuningdek, 2022 yilda davlat-xususiy sheriklik asosida amalga


² Muallif ishlanmasi. Manba: Ўзбекистон Республикаси Миллий Статистика қўмитаси, Давлат-хусусий шерикликни ривожлантириш агентлиги маълумотлари.

o'shirilgan loyihalarning umumiy hajmi 18 039,38 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich mamlakat YalMga nisbatan 2,03 foizni, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmiga nisbatan esa 6,78 foizni tashkil etgan. Mazkur loyihalarning umumiy hajmi 2022 yilda pandemiyadan keyingi davrlarda, 2020 yilga nisbatan 17799,3 mlrd. so'mga, 2021 yilga nisbatan 14 745,6 mlrd. so'mga ortgan. O'tgan tahliliy davrda (2018-2022 yillar) umumiy qiymati 21 852,09 mlrd. so'm bo'lgan jami 400 dan ortiq davlat-xususiy sheriklik loyihalari amalga oshirilgan. Mazkur davr oralig'ida, davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishdagi faollik

2021 va 2022 yillarda kuzatilgan. Ya'ni, 2021-2022 yillarda amalga oshirilgan davlat-xususiy sheriklik loyihalarining umumiy hajmi

2018-2020 yillarda amalga oshirilgan loyihalar hajmiga nisbatan

4 marta ortiq. Albatta, bunga asosiy sabablardan biri, davlat-xususiy sheriklik asosida loyihalarni moliyalashtirish va amalga oshirishda yaratilgan huquqiy asoslar va orttirilgan tajriba hisoblanadi (3-rasm).



3- rasm. 2022 yilda davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirilgan loyihalarning sohalar kesimida tahlili³.

2022 yilda davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirilgan loyihalarning sohalar kesimida tahlili shuni ko'rsatadiki, yirik sohalar – suv xo'jaligi va irrigasiya tarmoqlarini qurish, mavjudlari holatini yaxshilashga qaratilgan sohada eng ko'p davlat-xususiy sheriklik loyihalari amalga oshirilgan (30 foiz). Keyingi o'rinlarda turuvchi yirik sohalar: energetika va kommunal xo'jalik sohasi – 28 foiz, ta'lim, bandlik va yoshlar tadbirkorlik bo'yicha – 22 foiz, madaniyat va sport sohasi – 11 foiz.

Yuqoridagi tahlillarda energetik sohasi ustuvor sohalardan biri ekanligi ma'lum bo'ldi. Bu borada, ta'kidlash lozimki, respublikamizda davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalar bo'yicha energetika sohasi etakchilardan bo'lib, mazkur yo'nalishdagi energetika loyihalariga jalb qilingan investitsiyalar, birinchi navbatda yalpi xorijiy investitsiyalar hajmida mazkur sohaga kiritilgan investitsiyalar ulushi yuqori bo'lib turibdi. Bu borada, respublika hukumati 2030 yilga qadar ishlab chiqarilishi rejalashtirilgan energiya hajmini deyarli ikki baravardan ortiqqa etkazishni rejalashtirganligini inobatga olsak, ushbu maqsadga erishishda samarali usullaridan hisoblangan davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini amaliyotga tatbiq etish orqali sohaga xususiy investitsiyalarni jalb qilish istiqbolidir. Xususan, "2023 yil holatiga energetika sohasida jami 34 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Shundan:

- 7 ta davlat-xususiy sheriklik loyihalari muvaffaqiyatli ishga tushgan;
- 12 ta loyiha bo'yicha qurilish ishlari hozirga qadar olib borilmoqda;
- 5 ta loyiha bo'yicha tender jarayonlari amalga oshirilmoqda;
- 10 ta loyiha bo'yicha esa o'rganish jarayoni kechmoqda⁴.

Energetika sohasida amalga oshirilayotgan davlat-xususiy sheriklik mexanizmi asosidagi yirik loyihalar haqida quyidagi jadval ma'lumotlarida ko'rish mumkin:

O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik mexanizmi orqali loyihalarni amalga oshirishni rivojlantirish bo'yicha

3 Muallif ishlanmasi. Manba: Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi ma'lumotlari

4 Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish agentligi ma'lumotlari.



qator samarali chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligiga qaramasdan sohada muammolar mavjudligi ko'rish mumkin:

- respublikamizda davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari so'nggi 3 yil davomida doimiy o'zgarishlarga duchor bo'lmoqda: 2021 yilda "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi qonun va "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida to'g'risida"gi nizomlarga qator tuzatish va o'zgartishlar kiritilgan. Natijada, sohaga oid yangi prosessual normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

- "Davlat-xususiy sheriklik to'g'risida"gi qonunning

31-moddasida quyidagilar bayon etilgan: "Davlat-xususiy sheriklik ob'ekti joylashgan va (yoki) davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimda nazarda tutilgan faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan, davlat sherigiga doimiy foydalanish huquqi asosida tegishli bo'lgan er uchastkalari yoki ularning bir qismi davlat sherigi tomonidan xususiy sherikka davlat-xususiy sheriklik to'g'risidagi bitimda ko'rsatilgan muddatga va shartlar asosida ijaraga berilish" ko'zda tutilgan. Shunga qaramasdan, amaldagi

Er kodeksining 241-moddasiga asosan, "Davlat organlari, muassasalari va tashkilotlariga doimiy foydalanish huquqi asosida berilgan qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan erlar va o'rmon fondi erlari investisiya shartnomasi yoki davlat-xususiy sheriklik asosida ijaraga berilishi mumkin"⁵. Mazkur holat esa aksiyadorlik jamiyatlari, jumladan, O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari AJ tomonidan davlat-xususiy sheriklik mexanizmi orqali amalga oshirilayotgan loyihalar uchun er ajratilishida qator muammolarni yuzaga keltirmoqda.

Yuqoridagi tahlillarning uzviy davomi sifatida, O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik asosida amalga oshirilayotgan loyihalar taalluqli bo'lgan yana bir ustuvor soha – suv xo'jaligi sohasidir.

2022 yilda suv xo'jaligi sohasida irrigasiya inshootlarini barpo etish, mavjud irrigasiya tarmoqlari holatini yaxshilash, nasos stansiyalarini rekonstruksiya qilish kabi yo'nalishlarda 50 dan ortiq loyihalar amalga oshirilgan. E'tiborlisi, suv xo'jaligi sohasida davlat-xususiy sheriklik mexanizmi orqali loyihalarning deyarli barchasida tashabbuskor tomon – bu xususiy sektor vakillari hisoblanadi. Mazkur loyihalarning hayotiylik sikli 9-13 yillarni tashkil etganligini quyidagi tahliliy ma'lumotlar orqali ko'ramiz.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 10 apreldagi «Suv resurslaridan oqilona foydalanish va suv xo'jaligi ob'ektlaridan foydalanishda davlat-xususiy sheriklikni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»⁶gi qarori bilan suv xo'jaligi sohasida davlat-xususiy sheriklik mexanizmiga ko'ra loyihalar amalga oshirish ishlarini yanada jadallashtirish nazarda tutilgan. Mazkur hujjatga ko'ra, 01.01.2022 yil holatiga suv xo'jaligi sohasidagi mavjud ob'ektlarini davlat-xususiy sheriklik tamoyillari asosida xususiy sektor boshqaruviga beruvchi 100 ta loyiha ro'yxati shakllantirilgan (2-jadval):

2-jadval. Suv xo'jaligi sohasida davlat-xususiy sheriklik mexanizmi asosida boshqaruvga beriladigan irrigasiya va meliorasiya ob'ektlari 01.01.2022 yil holatiga

№	Hudud nomi	Davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari asosida boshqaruvga be-riladigan irrigasiya va meliora-siya ob'ektlari soni	Biriktirilgan maydon, ga
1	Qoraqalpog'iston Res-publikasi	25	5005,0 ra
2	Andijon viloyati	3	690,0 ra
3	Buxoro viloyati	5	24 620,0 ra
4	Jizzax viloyati	10	218 889,0 ra
5	Qashqadaryo viloyati	9	6 353,0 ra
6	Navoiy viloyati	3	2 332,0 ra
7	Namangan viloyati	6	3 911,0 ra
8	Samarqand viloyati	8	35 412,0 ra
9	Sirdaryo viloyati	4	10 550,0 ra
10	Surxondaryo viloyati	10	3 801,0 ra
11	Toshkent viloyati	5	4 106,1 ra
12	Farg'ona viloyati	5	2 218,0 ra
13	Xorazm viloyati	7	2 969,7 ra

Suv xo'jaligi sohasida davlat-xususiy sheriklik mexanizmi asosida boshqaruvga beriladigan irrigasiya va meliorasiya ob'ektlari bo'yicha

5 <https://lex.uz/docs/5580329>

6 <https://lex.uz/docs/5365895>



100 dan ortiq suv xo'jaligi ob'ektlarini xususiy sherik boshqaruviga berilgan.

Shuningdek, soliqni saqlash sohasidagi DXSh loyilarini moliyalashtirishda muhim jihat, investisiya loyihalarini moliyalashtirishdagi asosiy ulushga mahalliy tashabbuskorlarning egalik qilishidir. Tahlillarga ko'ra, ular tomonidan tizimdagi DXSh mexanizmi asosidagi investisiya loyihalarini moliyalashtirishning umumiy qiymati 422,0 mlrd so'mni tashkil etgan (3-jadval).

3-jadval. Sog'liqni saqlash vazirligi tizimida tashkil qilingan davlat xususiy sheriklik loyihalari to'g'risida tahliliy ma'lumot.

No	Loyiha amalga oshirilgan hudud	Loyiha qiymati (mlrd so'mda)	
Maxalliy tashabbuskorlar			
1	Qoraqalpog'iston	1,3	
2	Andijon	27,8	
3	Buxoro	5,4	
4	Qashqadaryo	6,2	
5	Navoiy	1,3	
6	Namangan	48,5	
7	Samarqand	26,1	
8	Sirdaryo	24,5	
9	Surxondaryo	10	
10	Toshkent viloyati	18,6	
11	Farg'ona	90,6	
12	Xorazm	16,3	
13	Toshkent shahri	136,4	
Jami:		422,0	
Xorijiy tashabbuskorlar			
No	Loyiha amalga oshirilgan hudud	Loyiha nomi	2025 yil uchun re-ja qilingan loyihalar (mln dollar)
1	Surxondaryo	«Markazlashgan laboratoriya»	0,78
2	Toshkent shahri	tashkil etish	0,73
3		«Tibbiy laboratoriya» tashkil etish	11,00
4		«Gemodializ xizmati markazlari» yara-tish va xizmat ko'rsatish	5,13
5		«Reabilitasiya markazi» tashkil etish	5,88
Jami:			23,5

Sog'liqni saqlash sohasida xususiy tashabbuskorlar tomonidan 2025 yil uchun Surxondaryo viloyati, Termiz shahrida «Markazlashgan laboratoriya», Toshkent shahrida «Tibbiy laboratoriya», Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm viloyati va Toshkent shahrida «Gemodializ xizmati markazlari»ni yaratish va xizmat ko'rsatish, Toshkent shahar 5-son klinik shifoxonasi xududida «Reabilitasiya markazi», Toshkent shahar, Chilonzor tumani, Arnasoy ko'chasi, 2-katta Chilonzor mahallasi, 17-uyda joylashgan «Bolalar gemoatologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi marazi» hududidagi 1800 kvm. er maydoni va bo'sh turgan 600 kvm binosida «Nurli terapiya markazi»ni tashkil etish kabi o'rta hajmli DXSh loyihalarini moliyalashtirish nazarda tutilgan.

Shu nuqtai nazardan, sog'liqni saqlash sohasidagi davlat-xususiy sheriklik loyihalarini moliyalashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan yangi institusional yondashuvlarni ham tahlil qilish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Xususan: O'zbekistonda sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlari orqali investisiya loyihalarini moliyalashtirish amaliyoti yildan-yilga takomillashib bormoqda. Ayniqsa, 2019 yildan keyin ushbu sohada amalga oshirilgan loyihalar tahlili, ushbu yo'nalishdagi moliyaviy usullarni



takomillashtirish borasida muhim yangilik va yutuqlarni namoyon etmoqda. Jumladan, hududlar kesimida 13 ta mahalliy tashabbuskorlar ishtirokida amalga oshirilgan loyihalarning umumiy qiymati 422 milliard so'mni tashkil etib, mazkur ko'rsatkichning yuqori darajadagi samaradorligi aniq kuzatilmoqda (4-jadval).

4-jadval. Sog'liqni saqlash sohasidagi mahalliy DXSh loyihalari jadvali⁷

No	Loyiha amalga oshirilgan hudud	Loyiha qiymati (mlrd so'mda)
1	Qoraqalpog'iston	1.3
2	Andijon	27.8
3	Buxoro	5.4
4	Qashqadaryo	6.2
5	Navoiy	1.3
6	Namangan	48.5
7	Samarqand	26.1
8	Sirdaryo	24.5
9	Surxondaryo	10.0
10	Toshkent viloyati	18.6
11	Farg'ona	90.6
12	Xorazm	16.3
13	Toshkent shahri	136.4

Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik mexanizmi asosida amalga oshirilgan loyihalar tahlili ushbu sohadagi investisiya faolligining kengayib borayotganini yaqqol namoyon etmoqda. Jumladan, mamlakatimizning turli hududlarida 13 ta mahalliy tashabbuskorlar ishtirokida umumiy qiymati 422 milliard so'mga teng bo'lgan loyihalar amalga oshirilgani, mazkur sohadagi islohotlarning amaliy natijasi sifatida qaralishi mumkin. E'tiborli jihati shundaki, mazkur loyihalar hududlar kesimida muvozanatli taqsimlangan bo'lib, sog'liqni saqlash infratuzilmasini barqaror rivojlantirishda muhim o'rin tutmoqda. Xususan, Farg'ona viloyatidagi loyiha qiymati 90,6 milliard so'mni tashkil etishi bilan barcha hududlar orasida etakchilikni saqlab turibdi. Bu esa, ushbu hududda sog'liqni saqlash xizmatlariga bo'lgan ehtiyoj yuqoriligi va xususiy sektorning ushbu ehtiyojni qoplashga bo'lgan intilishini ko'rsatadi. Shuningdek, Toshkent shahrida 136,4 milliard so'mlik loyiha amalga oshirilgani mazkur hududda aholi zichligi va tibbiy xizmat turlarini kengaytirish zaruratini inobatga olgan holda yo'lga qo'yilgan strategik tashabbus sifatida baholanadi. Namangan, Samarqand, Sirdaryo va Toshkent viloyati kabi hududlar ham yuqori qiymatdagi loyihalarga ega bo'lib, bu sohadagi barqaror investision muhit mavjudligini ko'rsatadi. Tahlildan ko'rinib turibdiki, mamlakat miqyosida sog'liqni saqlash sohasidagi DXSh loyihalari nafaqat markaziy, balki chekka hududlarda ham faol amalga oshirilmoqda. Bu esa sohaga xususiy kapitalni keng jalb etish, yangi texnologik echimlarni joriy etish, tibbiy xizmat sifati va qamrovini oshirishda muhim qadam hisoblanadi. Shu bilan birga, mazkur loyihalar mahalliy tashabbuskorlar ishtirokida amalga oshirilgani soha uchun ichki resurslardan samarali foydalanishni, mahalliy tadbirkorlik salohiyatining o'sishini va ijtimoiy infratuzilmaning rivojlanishini ifodalaydi. Davlat-xususiy sheriklik mexanizmiga asoslangan ushbu loyihalar sog'liqni saqlash tizimini yanada sifatli, samarali va innovasion yo'nalishda takomillashtirishda muhim tayanch vazifasini o'tamoqda.

Shuningdek, 2025 yil uchun rejalashtirilgan xorijiy tashabbuskorlar ishtirokidagi investisiya loyihalari 23,5 million AQSh dollariga teng bo'lib, ular "Markazlashgan laboratoriya", "Gemodializ markazlari", "Nurli terapiya markazi" kabi tibbiy xizmat turlarini qamrab olgan bo'lib, ushbu sohadagi xalqaro hamkorlik va texnologiyalarning jalb qilinishiga xizmat qilmoqda. Mazkur moliyalashtirish jarayonlarining takomillashuvida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan 2019 yil 21 oktyabrda tasdiqlangan "Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish tartibi bo'yicha uslubiy qo'llanma"⁸ ning ahamiyati beqiyos bo'ldi. Ushbu qo'llanmada ilgari surilgan muhim takliflardan biri – sog'liqni saqlash sohasidagi DXSh loyihalarini ulushli moliyalashtirish qiymatini suveren xalqaro obligatsiyalarining avvalgi tartibga solish davri uchun belgilangan o'rtacha foiz stavkasiga bog'lab aniqlash hisoblanadi. Bu yondashuv investorlar uchun bozor mexanizmiga yaqin, haqqoniy va shaffof baholashni ta'minlaydigan moliyaviy zamin yaratadi. Boshqacha aytganda, davlat tomonidan taqdim etiladigan moliyaviy yordam yoki imtiyozli moliyalashtirish hajmi muayyan

⁷ Ўзбекистонда давлат-хусусий шериклик лойиҳаларини молиялаштириш ва амалга ошириш таҳлили. Тошкент: ТДИУ, 2025.

⁸ Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги. Соғлиқни сақлаш соҳасида давлат-хусусий шериклик лойиҳаларини амалга ошириш тартиби бўйича услубий қўлланма. Тошкент, 2019 йил 21 октябрь.



tijorat foizlariga bog'lanmagan holda, global kapital bozoridagi xavf-xatar va tavakkalchilik holatlari asosida aniqlanadi. Bunday hisob-kitob uslubi orqali davlat-xususiy sheriklik loyihalarining moliyaviy samaradorligi, kelgusidagi to'lov qobiliyati va byudjet yuklamalarini kamaytirish imkoniyatlari aniqroq baholanadi. Shu bilan birga, ushbu yondashuv investorlar uchun aniq, kutilmalardan xoli mexanizmni shakllantiradi, bu esa investisiyaviy muhitning barqarorligi va bozor ishtirokchilari o'rtasidagi ishonchni yanada mustahkamlaydi. Davlat va xususiy sheriklar o'rtasidagi uzoq muddatli hamkorlikda shaffof moliyalashtirish mexanizmlarining mavjudligi institusional kapitalni kengaytirish va ijtimoiy sohaga investisiya oqimini oshirishga xizmat qiladi. Sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini ulushli moliyalashtirishda suveren xalqaro obligatsiyalarning o'rtacha foiz stavkalariga bog'liq holda moliyaviy baholash metodikasining joriy qilinishi mazkur sohada ilg'or, bozor tamoyillariga asoslangan va samarali mexanizm shakllanishini ta'minlagan. Bu nafaqat moliyaviy manbalardan oqilona foydalanish, balki davlat byudjeti yuklamalarini optimallashtirish, xususiy kapitalni jalb etish va loyihalarni amalga oshirishdagi tavakkalchiliklarni aniq taqsimlash imkonini ham beradi. Natijada, DXSh loyihalari uchun institusional darajada shakllangan moliyaviy platforma va normativ-huquqiy asoslarning mustahkamlanishi ko'zga tashlanmoqda, bu esa sohaning strategik rivojlanishida muhim pog'ona hisoblanadi.

Bundan tashqari sog'liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirishda xorijiy investisiyalarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish, ayniqsa, imtiyozli kreditlash sharoitlarini belgilash orqali amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayonda 2019 yil 16 aprelda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4290-son qarori muhim normativ-huquqiy asos vazifasini o'tadi.⁹ Ushbu qarorda belgilanishicha, sog'liqni saqlash sohasidagi davlat-xususiy sheriklik loyihalarida tijorat banklari tomonidan ajratiladigan imtiyozli kreditlar faqatgina investor tomonidan kiritiladigan investisiyalarning umumiy hajmidagi xorijiy sarmoya 80 foizdan kam bo'lmagan holda amalga oshirilishi mumkin. Bunday talab, bir tomondan, mahalliy moliya institutlari uchun riskni kamaytirs, ikkinchi tomondan, strategik ahamiyatga ega sohaga yuqori sifatli, texnologik jihatdan rivojlangan va kapital jihatdan barqaror xalqaro sheriklarni jalb qilish imkonini yaratadi. Aynan shu talabning amaliyotda tatbiq etilishi maqolada keltirilgan qator loyihalar – jumladan, "Toshkent shahrida tibbiy laboratoriya tashkil etish", "Nurli terapiya markazi", "Gemodializ xizmati markazlari" va boshqa 2025 yil uchun rejalashtirilgan loyihalarda o'z ifodasini topgan. Ushbu loyihalarda xorijiy sarmoyadorlar tomonidan to'g'ridan-to'g'ri investisiyalar jalb etilmoqda hamda ularning moliyalashtirishdagi ulushi asosiy mablag' manbai sifatida xizmat qilmoqda. Bu esa davlat tomonidan berilgan imtiyozli kreditlar uchun xavfsizlik kafolati yaratish va umumiy moliyaviy tavakkalchilikni kamaytirishga olib kelmoqda. Bunday yondashuv orqali sog'liqni saqlash sohasidagi DXSh loyihalarini moliyalashtirishda jahon amaliyotiga mos mexanizm shakllantirilmoqda. Xorijiy sarmoyalarning yuqori ulushi loyihalarning texnologik darajasi, xizmat sifati va mutaxassislar tayyorgarligida ham ijobiy o'zgarishlarga olib kelmoqda. Shu bilan birga, mazkur mexanizm orqali davlat byudjetiga tushadigan moliyaviy yuklamalar qisqartiriladi, loyihalarning ijtimoiy ta'siri kuchayadi, xususiy sektor esa barqaror va daromadli yo'nalishda investisiya kiritadigan muhitga ega bo'ladi. Mazkur mexanizm nafaqat huquqiy asosga, balki iqtisodiy mantiqiylik va moliyaviy samaradorlik mezonlariga ham to'liq javob beradi. Uning davlat-xususiy sheriklikni joriy etishdagi ahamiyati shundaki, sohaga yuqori sifatli, texnologik ilg'or hamkorlarni jalb qilish bilan birga, moliyalashtirish tizimini ham shaffof va kafolatli shaklga keltiradi. Bu esa uzoq muddatli, barqaror va strategik ahamiyatga ega tibbiy infratuzilma ob'ektlarini yaratishga keng yo'l ochadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida aytish mumkinki, O'zbekistonda davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarini joriy etish va ular asosidagi loyihalarni amalga oshirishda huquqiy bazaning takomillashtirilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Jumladan, amaldagi me'yoriy-huquqiy hujjatlarga, xususan, O'zbekiston Respublikasi Er kodeksiga munosabatli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish orqali mavjud bahsli masalalarni hal etish imkoni yaratiladi. Shu bilan birga, DXShning institusional asoslarini mustahkamlash, moliyalashtirishning aniq va shaffof mexanizmlarini ishlab chiqish, hamkorlik jarayonidagi barcha ishtirokchilar manfaatlarining himoya qilinganligi loyihalar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shunday ekan, davlat va xususiy sektor o'rtasidagi o'zaro ishonchni mustahkamlash va barqaror huquqiy muhitni shakllantirish DXShning rivoji uchun hal qiluvchi omillardan biri sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Государственно-частное партнерство: теория и практика [Текст] / В. Г. Варнавский и др.; Гос. ун-т - Высшая школа экономики. - М.: Изд. дом Гос. ун-та - Высшей школы экономики, 2010. - 287 с.
2. Richard Hemming. Public-Private partnership. e IMF Institute and the Joint Africa Institute Tunis, Tunisia, February 28 – March 1, 2006

⁹ <https://lex.uz/docs/4293694>



3. Шавкатов Н. Давлат ва хусусий шериклик амалиётида молиявий муносабатларни такомиллаштириш. 08.00.07 – Молия, пул муомаласи ва кредит Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (Doctor of Philosophy) диссертацияси автореферати Тошкент шаҳри – 2021 йил. <https://library.ziyonet.uz/ru/book/128708>
4. Шавкатов Н. Давлат ва хусусий шериклик амалиётида молиявий муносабатларни такомиллаштириш. 08.00.07 – Молия, пул муомаласи ва кредит Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (Doctor of Philosophy) диссертацияси автореферати Тошкент шаҳри – 2021 йил. <https://library.ziyonet.uz/ru/book/128708>
5. Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 16 августдаги “Ер участкаларини ажратиш ва улардан фойдаланиш, шунингдек ерларни ҳисобга олиш ва давлат ер кадастрини юритиш тизими такомиллаштирилиши муносабати билан Ўзбекистон Республикасининг айрим қонун ҳужжатларига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш тўғрисида”ги ЎРҚ-708-сон Қонуни <https://lex.uz/docs/5580329>
6. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 12 апрелдаги “Сув ресурсларидан оқилona фойдаланиш ва сув хўжалиги объектларидан фойдаланиш борасида давлат-хусусий шерикликни кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 199 сон қарори <https://lex.uz/docs/5365895>
7. Ўзбекистонда давлат-хусусий шериклик лойиҳаларини молиялаштириш ва амалга ошириш таҳлили. Тошкент: ТДИУ, 2025.
8. Ўзбекистон Республикаси Соғлиқни сақлаш вазирлиги. Соғлиқни сақлаш соҳасида давлат-хусусий шериклик лойиҳаларини амалга ошириш тартиби бўйича услубий қўлланма. Тошкент, 2019 йил 21 октябрь.
9. Ўзбекистон Республикаси Президенти. Соғлиқни сақлаш соҳасида давлат-хусусий шерикликни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида. ПҚ-4290-сон. Тошкент, 2019 йил 16 апрель. <https://lex.uz/docs/4293694>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>